TOSHKENT VILOYATI ANGREN SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-noyabr | 358-10-148-Q/24 | Angren shahar hokimligi

Angren shahar hokimining 2024-yil 28-oktabrdagi 335-10-148-Q/24-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Angren shahar hokimligi devonxonasi mudiri Sh.Tenglashevning bildirgi xati bilan tanishib chiqib, “Ma’muriy tartib - taomillar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 59-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Angren shahar hokimining 2024-yil 28-oktabrdagi 335-10-148-Q/24-sonli qarorining 7-bandidagi “eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida” so‘zlari “bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida” so‘zlariga o‘zgartirilsin.

2. Qarorning qolgan bandlari o‘zgarishsiz qoldirilsin.

3. Qaror ijrosini ta’minlash va nazorat qilish Angren shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Y.Naraliyev zimmasiga yuklatilsin.

Angren shahar hokimi **A.A.Rayimov**